

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI BOLALARNI ANIQLASH HAMDA ULAR USTIDA ISHLASH TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich

Ilmiy rahbar: p.f.d professor

Yo'ldoshev Dilshod Xusan o'g'li

TVCHDPU, talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada iqtidorli bolaning shaxsiy faolligi, shuningdek, asosida individual iste'dodni shakllantirish va amalga oshirish yotuvchi shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish psixologik mexanizmlari muhim ahamiyatga egaligi haqida bir necha qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, amaliy-yo'naltirilgan tizim, yuksak qobiliyatlar, individual mashg'ulotlar.

Abstract:

This article shows forward a number of views on the importance of the psychological mechanisms of self-development of the gifted child, as well as the formation and implementation of individual talent.

Keywords: Talent, practice-oriented system, high skills, individual training.

Аннотация: В данной статье выдвигается ряд взглядов на важность психологических механизмов саморазвития одаренного ребенка, а также формирования и реализации индивидуальной одаренности.

Ключевые слова: Талант, практико-ориентированная система, высокая квалификация, индивидуальное обучение.

Iqtidorli bola - bu u yoki bu faoliyatda yorqin, oshkora, ba'zida mashhur yutuqlari (yoki bu kabi yutuqlar uchun ichki asosga egaligi) bilan ajralib turuvchi boladir. Bugungi kunda ko'pchilik psixologlar tan olishlaricha, iqtidorning sifat jihatdan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyati darajasi - bu doim irsiyat va bolaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan (o'yin, ta'lim, mehnat) ijtimoiy muhitning murakkab o'zaro ta'siri natijasidir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish o'quvchilarga ularni qiziqtirgan savollarga javob topishlariga yordam beradi, ular uchun mohiyati noma'lum bo'lib, ammo qiziq bo'lgan hodisalar to'g'risida o'ylanishga undaydi. Muammoni o'ylash jarayonida bahs-munozaralar, turli-tuman fikr-mulohazalar yuzaga keladi. A.Maslou,

N.A.Bernshteyn va boshqa mashhur olimlarning fikrlariga tayangan holda, psixolog¹ *V.S.Yurkevich* tomonidan yuksak qobiliyatlar rivojlanishining (iqtidorning) uch qonuni ajratib berilgan:

Bola ijobiy hissiyotlari yuzaga keladigan faoliyatdagina qobiliyatlarning rivojlanishi yuz beradi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi uchun bolaning asosiy faoliyati (ta'lim va darsdan tashqari faoliyat) murakkablik darajasini doimiy oshirib borish zarur.

Faoliyat rivojlantiruvchi bo'lishi uchun (ham qobiliyati hamda bolaning shaxsi) bola uchun (ichki motivatsiyasi bo'yicha) ahamiyatga ega bo'lishi zarur.²

Iqtidorning erta namoyon bo'lishi ikki yoshdan olti yoshgacha kuzatiladi. Bunday bolalar ikki-uch yoshdan o'qishga intiladilar, uch-to'rt yoshda o'qishni va sanashni biladilar, besholti yoshda so'zlarni va uncha katta bo'lmagan jummalarni yoza oladilar. Maktabgacha yosh davrida iqtidorli bolalar boshqalardan intellektning rivojlanish darajasi bilan ajralib turadilar. O'zlarining juda faolligi, ko'plab savol berishlari, qiziquvchanligi, kattalardan oladigan ma'lumotni oson eslab qolishi va qayta aytib bera olishi bilan birga, boy tasavvurga egadirlar. Iqtidorli bolalar ko'p hollarda turli hisob-kitoblarga qiziqadilar, she'r yoki ertaklar to'qiydilar, musiqa asboblari chaladilar, shaxmat o'ynaydilar, rasm chizadilar, qo'shiq aytadilar va raqsga tushadilar.³

Yetti yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan davrda bolalar ko'p hollarda kolleksiya yig'ishga (markalar, medallar, sevimli mul'tfil'm va kino qahramonlarining

¹ Локк Д. Мысли о воспитании. Т.3. – М.: Мысль, 1985.

² Штерн В. Умственная одаренность. – СПб.: Союз, 1997.

³ Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Юркевич В.С. Проблемы современной психологии Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Публичные лекции // URL: <http://childpsy.ru/media/129/>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

rasmlari va hk), qog‘oz, yog‘och va boshqa materiallardan turli predmetlarning loyihalarini yasashga qiziqadilar.

Iqtidorli bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha barcha noma‘lum bo‘lgan narsalarga va yangiliklarga nisbatan mustaqil ravishda javob axtarishda faollik ko‘rsatib, kattalarga turli savollar beradilar. Bu savollarga berilgan javoblar orqali atrof olamni, voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarining bog‘liqligini anglaydilar, shaxsiy hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara oladilar.

3-yoshli bolaga xos bo‘lgan hislatlar:

1. Nutqi ma‘no jihatidan bir-biriga bog‘langan so‘zlardan iborat.
2. O‘yinda rolga kiradi.
3. Shar, olma va boshqa predmetlarni chiza oladi.
4. O‘zi yechinib kiyina oladi.
5. Kubiklarni bir-birining ustiga qo‘ya oladi.
6. Tayanchsiz zinalardan o‘zi ko‘tarilib, tusha oladi.

4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek, o‘zlari haqida ma‘lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha yoshida rivojlanib, avval u qanday bo‘lgani va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:

1. Birinchi davr: 3- 4 yosh oralig‘ida bo‘lib, emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘likdir;
2. Ikkinchi davr: 4- 5 yoshni tashkil qilib, axloqiy o‘z-o‘zini boshqara olish bilan bog‘liq;
3. Uchinchi davr: shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatlarini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Maktab faoliyatining vazifasi o‘quvchilarning qobiliyatlari va shaxsiy-individual sifatlarini rivojlanirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi va bu bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘quvchini uzluksiz ta‘limga tayyorlaydi, bo‘lajak bitiruvchini mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikdagi ilmiytadqiqot ishlarining maqsadi – AKT - kompetentlikni oshirish, pedagogika fanining yutuqlarini o‘rganish va innovatsion faoliyatda uni sinovdan o‘tkazish, jamiyatga moslashuv, shaxsning ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishida AKTdan foydalanish hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati, bu o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta‘siri vositasidir. An’anaviy ta‘limiy dasturlarda odatda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

kreativlik va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish muhim hisoblanmaydi. U faqatgina zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga imkoniyat yaratadi. Iqtidorli bolalarning ta'lim olishlarida yangicha yondashuv, kompyuter orqali ta'limiy va rivojlantiruvchi dasturlar, AKTdan foydalanuvchi ish metodlari va shakllari zarurdir. O'quvchilar bilan ishlash jarayonida vazifani imkon qadar yaxshiroq bajarib o'qituvchining maqtoviga sazovor bo'lishga intiladigan, bir-birlari bilan raqobatlashuvchi o'quvchilar guruhi shakllanadi. Maktab pedagoglari oldida asosiy uch vazifa turadi:⁴

1. Iqtidorli bolalar bilan ishlashning nazariy, amaliy-yo'naltirilgan tizimini ishlab chiqish.
2. Maktabda o'quvchilar iqtidorlarini barvarq aniqlash diagnostikasi va monitoringini o'tkazish hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.
3. Olingan ma'lumotlarni sinf rahbarlarining kasbga yo'naltirish hamda psixologning kundalik mashaqqatli ish jarayonlarida qo'llash.⁵

Qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish ta'lim jarayonining yaxlitligi sharoitidagina, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatlaridan ko'proq foydalanishdagina amalga oshishi mumkin. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim va tarbiya mazmunining har bir bosqichlari uchun vazifalar belgilanadi: Ta'limning birinchi bosqichi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish; o'quv faoliyatiga barqaror qiziqishni shakllantirish; tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishni shakllantirish; mustaqil faoliyat elementlarini shakllantirish; ijodiy faoliyat asosi sifatida obrazli idrok va xayol elementlarini rivojlantirish; o'ziga, insonlarga ijobiy munosabatni shakllantirish; olam, hayot, jamiyatga qadriyatli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ta'limning ikkinchi bosqichida: o'quvchilarning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish; o'quv va ijodiy faoliyatga bo'lgan barqaror motivni shakllantirish; tadqiqotchilik faoliyati elementlarini o'zlashtirish; mustaqil faoliyat asoslarini shakllantirish; tasavvurni rivojlantirish; shaxs sifatida o'ziga, insonlar shaxsiga qadriyatli munosabatni shakllantirish; olam, hayot, jamiyatga qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Ta'lim uchinchi bosqichi vazifalari: katta sinf o'quvchilarining aqliy va ijodiy faolliklarini rivojlantirish; o'quv va ijodiy faoliyatga barqaror motivatsiyani shakllantirish; mustaqil ta'lim olishga ehtiyojni shakllantirish; tadqiqotchilik

⁴ Малева Н.И. Английские песни в марийской столице // Марийская правда. 2012.

⁵ Малева Н.И. Школьники рассказывали сказки на английском // Марийская правда. 2012. – № 73.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

faoliyati metodlarini egallash; mustaqil intellektual va ijodiy faoliyatni rivojlantirish; obrazli idrok va xayolga oid qobiliyatlarini amalga oshirish; shaxs sifatida o'ziga va inson shaxsiga qadriyatli munosabat xulqini amalga oshirish; hayotiy vaziyatlarni va ularning yechimini to'g'ri idrok eta olish qobiliyati. Iqtidorli o'quvchilar bilan ish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: o'quvchilarning sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ijodiy faoliyatlarini tashkil etishda maktabning intellektual, moddiy-texnik imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish: fan to'garaklari va qiziqishlar bo'yicha to'garaklar; sport seksiyalari, kompyuter ijodkorligi to'garaklari; ijodiy guruhlar; teatr studiyalari; tadqiqotchilik ishlari; olimpiada ishtirokchilarining tayyorgarliklari; individual mashg'ulotlar; Bolalar va o'smirlar iqtidorlari diagnostikasi; O'quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish va moyilliklarini barvaqt uyg'otish, bu jarayonga jiddiy tayyorlash; Faol fuqarolik

pozitsiyasini, yuksak axloqiy sifatlar va ma'naviy madaniyatni tarbiyalash.⁶

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- O'quvchining ijodiy faoliyat tajribasini egallashiga yo'naltirilgan ta'lim metodlari mazmunini ishlab chiqish, bu quyidagi elementlarni qamrab oladi: tushunish, hodisalarning yashirin mexanizmlarini anglab yetish, ularning sabab-oqibatli aloqadorligi, mazkur hodisalarning rivojlanish tarzini oldindan ko'ra bilish qobiliyati sifatida; dalillarni anglab yetish va tahlil yetishda muammoni aniqlash va qo'yish qobiliyati; olingan bilimlarni tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalariga unumdor ko'chira olish; obrazli, belgili, mazmunli analogiyalar asosida tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalarini yechish; obrazlar va g'oyalarni o'zgartirish, ularning interpretatsiyasi.
- O'quvchilarning o'quv faoliyatlarida metodologiya va o'quv fanini hamda uning metodlarini kuchaytirish.
- Ilmiy bilimlarni ijodiy qo'llash va o'quvchilarning ijodiy faolliklarini rivojlantirish uchun asos sifatida texnik modellashtirishdan foydalanish.
- Ta'limda yakuniy natijani ko'zlash, nafaqat matnli vazifalarning murakkablik darajasi bilan, balki predmet mazmunining hajmi, ijodiy faoliyat tajribasining davomiyligi bilan ham belgilanadi.
- O'quvchilarni vazifani yoki matnni yodda saqlab qolish va aytib bera olish, andozaviy vazifalarni yechish kabilar bilan bog'liq bo'lgan sodda ishlardan ijodiy

⁶ Андреев В.И. Конкурентология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2004.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

faoliyat elementlari va mustaqil qaror qabul qilishni talab etuvchi vazifalarga jalb etish. Shuningdek, masalan, Rossiyaning Iqtidorga oid ishchi konsepsiyasida iqtidorli bolalarning ta'lim jarayonida axborot olishning turli manbalaridan foydalana olish imkoniyati, shu jumladan, kompyuter tarmoqlari orqali axborot egallashga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchi uchun qay darajada tez axborot olish va o'z harakatlari to'g'risida qayta aloqada bo'lish ehtiyojidan kelib chiqqan holda kompyuterlashgan ta'lim vositalaridan foydalanish me'yoriga rioya etish lozim. Ko'rgazmali manbalar aks etuvchi (video, DVD va boshqalar) vositalar bunda foydali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Локк Д. Мысли о воспитании. Т.3. – М.: Мысль, 1985.
2. Штерн В. Умственная одаренность. – СПб.: Союз, 1997.
3. Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Юркевич В.С. Проблемы современной психологии Юркевич В.С. Проблемы современной психологии: Публичные лекции // URL: <http://childpsy.ru/media/129/>
4. Малева Н.И. Английские песни в марийской столице // Марийская правда. 2012.
5. Малева Н.И. Школьники рассказывали сказки на английском // Марийская правда. 2012. – № 73.
6. Андреев В.И. Конкурентология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2004.

